



## O'ZBEKISTON VA TURKIYA MUNOSABATLARINING GESOSIYOSIY JIHATLARI

**Akbarov Bunyodjon Ilyosjon o'g'li**

*Mustaqil tadqiqotchi ilyosjonovmuhammadbilol@gmail.com*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Turkiyaning Markaziy Osiyo siyosati geosiyosiy raqobat va mintaqaviy ittifoqlar fonida strategik ahamiyat kasb etgani ta'kidlanib, O'zbekiston bilan munosabatlar qardoshlik rishtalari, iqtisodiy hamkorlik va "Turkiy dunyo" g'oyasi asosida rivojlangani tahlil qilingan. Mustaqillikdan keyingi dastlabki inqirozlar, siyosiy kelishmovchiliklar va turg'unlik davrlaridan so'ng rahbarlarning oliy darajadagi uchrashuvlari orqali aloqalar strategik sheriklik bosqichiga chiqqanligi, savdo-iqtisodiy loyihalar, transport koridorlari, ta'lim almashinuvi va madaniy tadbirlar kengayganligi yoritilgan. Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasidagi integratsiya, Afg'oniston masalasidagi hamjihatlik va geosiyosiy muvozanat bu jarayonni mustahkamlayotganligi, bu esa kelajakda iqtisodiy diversifikatsiya va mintaqaviy barqarorlikka hissa qo'shishi mumkinligi takidlangan.

**Kalit so'zlar:** Turkiya Markaziy Osiyo siyosati, O'zbekiston-Turkiya munosabatlari, geosiyosiy raqobat, strategik sheriklik, Turkiy dunyo g'oyasi, iqtisodiy hamkorlik, transport koridorlari, ta'lim almashinuvi, Turkiy Davlatlar Tashkiloti, madaniy integratsiya, inqirozlar va tiklanish, mintaqaviy muvozanat, Afg'oniston masalasi, investitsiyalar va savdo.

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается, что политика Турции в Центральной Азии приобрела стратегическое значение на фоне геополитической конкуренции и региональных союзов, а также анализируется развитие отношений с Узбекистаном на основе братских уз, экономического сотрудничества и идеи "Тюркского мира." После первых кризисов, политических разногласий и периодов застоя после обретения независимости, благодаря встречам лидеров на высшем уровне, отношения вышли на уровень стратегического партнерства, расширились торгово-экономические проекты, транспортные коридоры, образовательный обмен и культурные мероприятия. Было подчеркнуто, что интеграция в рамках Организации тюркских государств, взаимопонимание и геополитический баланс в Афганистане укрепляют этот процесс, что может способствовать экономической диверсификации и региональной стабильности в будущем.

**Ключевые слова:** Турция Центральноазиатская политика, узбекско-турецкие отношения, геополитическая конкуренция, стратегическое партнерство, идея тюркского мира, экономическое сотрудничество, транспортные коридоры, образовательный обмен, Организация тюркских государств, культурная интеграция, кризисы и восстановление, региональное равновесие, афганский вопрос, инвестиции и торговля.



**Abstract:** *This article emphasizes that Turkey's Central Asian policy has gained strategic importance against the backdrop of geopolitical competition and regional alliances, and analyzes the development of relations with Uzbekistan based on fraternal ties, economic cooperation, and the idea of the "Turkic world." It is highlighted that after the initial crises, political disagreements, and periods of stagnation after independence, through high-level meetings of leaders, relations have reached the stage of strategic partnership, trade and economic projects, transport corridors, educational exchanges, and cultural events have expanded. It was noted that integration within the framework of the Organization of Turkic States, solidarity and geopolitical balance on the Afghan issue are strengthening this process, which in the future can contribute to economic diversification and regional stability.*

**Keywords:** *Turkey Central Asian policy, Uzbekistan-Turkey relations, geopolitical competition, strategic partnership, the idea of the Turkic world, economic cooperation, transport corridors, educational exchange, Organization of Turkic States, cultural integration, crises and recovery, regional balance, the Afghan issue, investments and trade.*

## KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda geosiyosiy raqobatning kuchayishi, global ta'minot zanjirlarining o'zgarishi va mintaqaviy ittifoqlarning yangi shakllanishi fonida Turkiyaning Markaziy Osiyo siyosati alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Turkiya Respublikasi o'zining Yevroosiyo chorrahasidagi noyob joylashuvi, NATO a'zoli, Yevropa Ittifoqi bilan bo'xona ittifoqi asosida Sharqiy O'rta yer dengizidan Qora dengizgacha bo'lgan keng hududda faol tashqi siyosat olib bormoqda. Bu siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyo bo'lib, unda Turkiya nafaqat iqtisodiy va madaniy ta'sirni kuchaytirish, balki Rossiya, Xitoy va G'arb kuchlari o'rtasidagi muvozanatni o'z foydasiga o'zgartirishga intilmoqda.

Xususan, O'zbekiston bilan munosabatlar bu strategiyaning markaziy elementi sifatida ko'rinadi. Bunga sabab 40 millionga yaqin aholisi, gaz va oltin zaxiralari, "O'rta yo'lak" transport koridori va Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasidagi yetakchi roli bilan O'zbekiston Turkiya uchun nafaqat qardosh davlat, balki geosiyosiy ittifoqchi va iqtisodiy eshikdir.

Markaziy Osiyo, o'zining boy tabiiy resurslari, qulay geografik joylashuvi va tarixiy-madaniy aloqalari bilan, doimo yirik davlatlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Mintaqada yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy-siyosiy o'zgarishlar, Turkiyaning mintaqaga nisbatan olib borayotgan geosiyosiy strategiyasini o'rganishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Shu o'rinda, zamonaviy geosiyosiy dinamikaning murakkabligi, xususan, Sharqiy O'rta yer dengizi mintaqasida yuzaga kelayotgan keskinliklar va Shimoliy Kipr masalasidagi so'nggi voqealar, Turkiyaning tashqi siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, mintaqada harbiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi, xalqaro terrorizm va ekstremizm



tahdidlarining kuchayishi, Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlarining boshqa sohalar bilan birgalikda harbiy texnikaviy sohada ham hamkorlikni yanada rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, "Turkiy dunyo" g'oyasining amalga oshirilishi, Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarda muhim o'rin tutadi. Bu g'oya, tarixiy madaniy yaqinlik, til birligi va umumiy qadriyatlarga asoslangan hamkorlikni nazarda tutadi.

Turk va islom tarixining eng yuqori davrlarining markazi bo'lgan o'rta asr Markaziy Osiyo merosiga mezbonlik qilgan O'zbekiston madaniyat va sivilizatsiya nuqtai nazaridan ham turk va islom olami uchun muhim ahamiyatga ega. Turk va islom olami o'tmishining fuqarolik, ijtimoiy, diniy va madaniy sohalaridagi muvaffaqiyatli namunalari O'zbekistonning Samarqand va Buxoro, Xiva va Qo'qon kabi shaharlari bilan o'ziga xos o'xshashliklarga ega<sup>1</sup>. Ko'plab siyosatchi va tadqiqotchilarning O'zbekistonning mustaqillikka erishgandan keyingi kelajakdagi siyosatiga oid bashoratlarida bu davlat sobiq sho'rolar ta'sirida qoladimi, qanday qilib o'z mustaqil siyosatini yaratadi, jahon siyosatiga qanday o'zlik bilan kirib boradi, degan savollar tahlil qilingan.

1991-yilda mustaqillikka erishgan O'zbekistondan oldinda milliy davlat yaratish, mustaqil milliy o'zlikni yaratish nuqtai nazaridan, "dekolonizatsiya", ya'ni mustamlakachilikdan keyingi muammolarni hal qilish, ijtimoiy xotirada islom va turk o'tmishiga oid qadriyatlarga hurmat ko'rsatuvchi pozitsiya bo'ladimi, boshqa davlatlarga nisbatan kam uchraydigan "ruslashtirish" siyosatidan qaytishga urinishlar bo'ladimi-yo'qligi o'rganila boshlandi. So'nggi yillarda O'zbekiston zamonaviy tashqi siyosatining yangi yondashuvlariga tayangan holda ko'p tomonlama hamkorlik formatlaridagi faoliyatini sezilarli ravishda jonlantirish yo'lidan ketmoqda. Turkiya va O'zbekistonning geosiyosiy joylashuv va tarixiy taraqqiyotdan tortib, hozirgi rivojlanish bosqichida kechayotgan islohotlarning o'ziga xosligigacha bo'lgan ko'p umumiy jihatlariga ega. O'zbekiston 40 millionga yaqin aholisi, geostrategik joylashuvi, chuqur tarixi, boy madaniy qadriyatlari va iqtisodiy salohiyati bilan mintaqaviy tinchlik va barqarorlik uchun muhim o'rin tutadi.

Turkiya qardosh O'zbekiston bilan hamkorlikni har sohada rivojlantirishga katta ahamiyat berib, turk va o'zbek xalqlari o'rtasidagi yaqin rishtalar bilan mustahkamlangan munosabatlarni yanada rivojlantirishga intilishlarini davom ettirmoqda. Turkiya bu mintaqada, avvalo O'zbekiston bilan ochadigan yangi sahifa nafaqat bu davlat bilan ikki tomonlama munosabatlar, balki mintaqaviy va global muvozanat, ta'sir uchun kurash nuqtai nazaridan ham muhim xisoblanadi.

Turkiya 1991 yil 16 dekabrda O'zbekiston mustaqilligini birinchi bo'lib tan oldi. Dastlab ikki tomonlama munosabatlar birodarlik ruhida yo'lga qo'yildi va ishonchni mustahkamlash chora-tadbirlariga erishildi. 1992 yil aprelda Turkiyaning

<sup>1</sup> O'zbekiston va Turkiya munosabatlarining mintaqaviy geosiyosiy jihatlari va istiqbollari, SH.Yuldoshev. Toshkent, Pedagogik tadqiqotlar jurnali. 2025 yil. <https://www.wosjournals.com/index.php/shokh>.



Toshkentdagi elchixonasi, 1993 yil yanvarda esa O'zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. Istanbulda davlatimizning bosh konsulxonasi ochildi. 1996 yilga kelib mamlakatlarimiz o'rtasida Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolangan<sup>2</sup>.

Oxirgi yillar davomida aloqalar strategik sheriklik darajasiga chiqdi. Oliy darajadagi uchrashuv va muzokarlarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng ko'lamli hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Bu ikki mamlakat ishbilarmun doiralari uchun qulay sharoit yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, qo'shma kooperatsiya loyihalari va madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini amalga oshirish kabi ko'plab yo'nalishlarda o'z aksini topmoqda. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston va Turkiya avia kompaniyalari ikki davlatni bog'lovchi reyslarni amalga oshira boshladi, O'zbekistonda turk maktablari ochilib, o'zbekistonlik talabalar Turkiyadagi universitetlarda o'qish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Ammo munosabatlar har doim ham bir maromda kechmagan. Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekistondagi siyosiy muxolifat "Erk" partiyasi ortidan ikki mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Bu voqeadan so'ng Turkiyada tahsil olayotgan ikki mingga yaqin o'zbekistonlik talabalar O'zbekistonga qaytarildi. Bu borada Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi kelishmovchiliklar keyinchalik ochiq muammoga aylandi. Bu diplomatik kelishmovchilikdan so'ng O'zbekiston panturkizmning har qanday g'oyalaridan uzoqlashdi hamda turk dunyosi yig'ilishlarining deyarli barchasidan o'z ishtirokini to'xtatdi.

Bu borada Turkiyaning sekyularizm tizimi ushbu dunyoviy o'zlikni ta'lim orqali barpo etishga intilayotgan yosh O'zbekiston Respublikasi uchun namuna bo'lishi mumkin edi. Lekin haqiqatda Toshkent bilan rasmiy aloqalar o'rnatilganidan so'ng Turkiyaning O'zbekistonga ta'sirini "turk maktablari" deb atalgan maktablar olib keldi.

Boshqa tomondan, Farg'ona vodiysida joylashgan O'zbekiston Islomiy Harakati a'zolari (O'IH) va boshqa ekstremistik guruhlar 1999 yilda Toshkent va uning atrofida zo'ravonlik va terror orqali o'zlarining radikal ishtirokini kuchaytirdilar. Bunday tartibsiz muhitda hukumat nazoratni kuchaytirar ekan, mamlakatdagi radikalizm va isyonchilik muammolarini xavfsizlashtirish maqsadida barcha turk maktab va muassasalarning faoliyati to'xtatdi. Buning natijasida Turkiya O'zbekiston munosabatlarida jiddiy darz ketishiga olib keldi.

Turkiya O'zbekiston munosabatlaridagi yana bir inqiroz 2005 yildagi Andijon voqealari fonida yuzaga keldi. Turkiya BMTning O'zbekistonga nisbatan inson huquqlari holatiga bag'ishlangan rezolyusiyasini qo'llab-quvvatlagani va Yevropa Ittifoqi Kengashi tomonidan O'zbekistonga nisbatan qabul qilingan ayrim cheklovchi choralarni qabul qildi. Turkiyaning bu harakati Anqarani O'zbekistondagi radikal guruhlarini qo'llab-quvvatlayotganlikda ayblagan O'zbekiston tomonining noroziligiga sabab bo'ldi va Prezident Abdulla Gulning Toshkentga tashrifini bekor qildi. Bu inqiroz

<sup>2</sup> O'zbekiston va Turkiya munosabatlarining mintaqaviy geosiyosiy jihatlarini va istiqbollari, SH.Yuldoshev. Toshkent, Pedagogik tadqiqotlar jurnali. 2025 yil. <https://www.wosjournals.com/index.php/shokh>.



ikki davlat munosabatlaridagi eng katta inqiroz sifatida baholandi va keyingi yillarda uzoq davom etgan siyosiy turg'unlikni keltirib chiqardi.

Yuqoridaglardan kelib chiqib aytish mumkinki, Turkiya Markaziy Osiyo mintaqasiga doimo qiziqish bilan qarab kelgan hamda ushbu davlatlarning boshqa mintaqalar bilan aloqalarini diqqat bilan kuzatib boradi. Misol uchun 2025-yilning 3-4-aprel kunlari bo'lib o'tgan YI-Markaziy Osiyo sammiti Turkiya tomonidan o'zgacha tahlil qilinishi kuzatildi.<sup>3</sup>

Jumladan, "Cumhuriyet" va "Birgün" nashrlari Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Turkmanistonni Yevropa Ittifoqi tomonidan taklif qilingan 12 milliard yevrolik investitsiyalar evaziga Anqara qo'llab-quvvatlayotgan Shimoliy Kipr Turk Respublikasini tan olmaslik majburiyatini olgan deb hisoblab ushbu sammitni tanqid qilishdi<sup>4</sup>. Markaziy Osiyo davlatlarining sammitdagi qarorlari aniq va asosli sabablar bilan izohlanadi. Asosiy motivlar quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy manfaatlar. YI Markaziy Osiyo uchun infratuzilma, "yashil energetika", raqamli aloqalar va Xitoy-YI yo'nalishidagi O'rta yo'lak (Middle Corridor) orqali savdo yo'llarini rivojlantirish uchun 12 milliard yevro miqdorida investitsiya va'da qildi. Modernizatsiyaga intilayotgan va global bozorlarga chiqishni istayotgan mintaqaga uchun bu - ulkan imkoniyat. Iqtisodiy o'sish va infratuzilmani rivojlantirishga muhim omil sifatida qaralmoqda.

2. Geosiyosiy muvozanat. ShKTRni tan olmaslik nafaqat Yevropa Ittifoqiga qaratilgan qadam, balki Rossiya va Xitoy kabi boshqa yirik o'yinchilarga ham signaldir. Mintaqa davlatlari Turk Davlatlari Tashkiloti doirasida Turkiya ta'sir doirasiga to'liq kirishni istamayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa Moskva va Pekin kabi yirik hamkorlar bilan mustaqil va moslashuvchan aloqalarni saqlab qolish uchun muhimdir.

3. Xalqaro huquq. ShKTR faqat Turkiya tomonidan tan olingan, Kipr Respublikasi esa xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan va YI a'zosi hisoblanadi. Tan olinmagan hududni qo'llab-quvvatlash Markaziy Osiyo davlatlarining global institutlarga integratsiyasi va xalqaro huquqiy mavqeiga zarar yetkazishi mumkin. Tan olingan normalarni qo'llab-quvvatlash - bu dunyo miqyosida o'z o'rnini mustahkamlashga intilayotgan davlatlar uchun pragmatik yo'ldir.

Umuman olganda, 2017-yildan keyin munosabatlar ancha yaxshilandi bunga misol sifatida quyidagilarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdo'g'onning siyosiy irodasi, qat'iyati muhim asos bo'ldi. Ya'ni ikki mamlakat rahbarlari o'rtasidagi do'stona aloqalar, muntazam uchrashuvlar, samimiy muloqotlar o'zaro hamkorlik rivojiga katta turtki bermoqda. Jumladan, 2016 yil noyabr oyida Rejep Tayyip Erdo'g'onning Samarqandga tashrifi, 2017 yil may oyida Pekinda o'tkazilgan «Bir makon, bir yo'l» forumida, sentyabr oyida Ostona shahri mezbonlik qilgan Islom hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo'yicha

<sup>3</sup> Kipr yunon davlatining Markaziy Osiyo davlatlar tomonidanyagona davlat sifatida tan olishi Turkiya strategiyasiga zarba beradi. 17.04.2025 Daily Sabah. <https://www.dailysabah.com/politics/news-analysis/cyprus-shift-by-turkic-states-deals-blow-to-turkish-strategy>

<sup>4</sup> O'rta Asya ulkelerinden 12 milyar Avro karşılığı ihanet.Cumhuriyet nashri. 17.04.2025 <https://www.cumhuriyet.com.tr/dunya/orta-asya-ulkelerinden-12-milyar-avro-karsiligi-ihanet-2319441>



sammiti hamda 20 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi doirasida O'zbekiston va Turkiya rahbarlari ikki tomonlama aloqalar istiqbollari to'g'risida fikrlashdilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 25-27 oktabr kunlari Turkiyaga rasmiy tashrifi Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik va do'stlikning yangi davrini boshlab berdi. Bu tashrif oliy martabali O'zbekiston rahbarining 1999 yildan beri Turkiyaga ilk safari bo'ldi. Tashrif asnosida o'tkazilgan muzokaralar chog'ida O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, qishloq xo'jaligi, transport, turizm, ilm-fan va boshqa sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Shu bilan birgalikda viza tartib-qoidalarini soddalashtirildi va keyinchalik Turkiya fuqarolari uchun vizasiz rejim qaytadan joriy qilindi<sup>5</sup>.

Tomonlar uchrashuvida O'zbekiston prezidenti quyidagi fikrlarga to'xtalib o'tganligi ikki davlat munosabatlarining naqadar muximligini ko'rsatdi: "Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik nafaqat davlatlarning ikki tomonlama munosabatlarini mustahkamlaydi, balki mintaqada va butun dunyoda tinchlik, barqarorlik va farovonlikka hissa qo'shadi. Tarixiy Ipak yo'li va ikki davlatning bu borada tutgan o'rniga nazar tashlashni o'zi kifoya. Har safar bu davlatlar o'z kuchini yo'qotganida turk-islom dunyosi ham zaiflashib borardi. Turkiya va O'zbekiston o'rtasida o'rnatilgan yangi mexanizmlar munosabatlarning strategik sheriklik darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi."<sup>6</sup> Shu sanadan buyon ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda, ayniqsa, iqtisodiy sohada muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha mintaqada Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Qirq millionga yaqin aholisi, bozor salohiyati, Markaziy Osiyo markazidagi geografik o'rni, boy tabiiy resurslari, harbiy qudrati, uzoq tarixi va boy madaniy qadriyatlari bilan O'zbekiston mintaqada yetakchi davlatga aylanish uchun katta imkoniyatlarga ega.

O'zbekiston bilan barcha sohalarida hamkorlik Turkiya uchun doimo istiqbolli bo'lib kelgan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng liberal iqtisodiy siyosatni amalga oshirib, erkin bozor iqtisodiyoti modelini o'zlashtirishga harakat qildi, mamlakatda xususiylashtirish va erkin savdoni rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy dasturlar amalga oshirildi. Turkiyaning geografik joylashuvi Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi strategik markaz sifatida dengizga chiqish imkoniyatiga bo'lmagan O'zbekiston uchun g'arbiy energiya koridori bo'ylab savdoni diversifikatsiya qilish uchun muhim imkoniyat yaratadi va Turkiyaning Yevropa Ittifoqi bozorlariga chiqishi Markaziy Osiyo davlatlarining shu jumladan O'zbekistonning qiziqishini uyg'otdi.

Turkiya-O'zbekiston ishbilarmonlar kengashi 1993 yilda tashkil etilgan bo'lib, munosabatlarning huquqiy asoslarini shakllantirish maqsadida 1992-2019 yillarda

<sup>5</sup>O'zbekiston - Turkiya: hamkorlikning yangi bosqichi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. 25.10.2017. <https://president.uz/en/lists/view/1175>

<sup>6</sup>O'zbekiston - Turkiya: hamkorlikning yangi bosqichi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. 25.10.2017. <https://president.uz/en/lists/view/1175>



turli sohalarda 90 dan ortiq ikki tomonlama bitim va protokollar imzolangan<sup>7</sup>. Turk ishbilarmonlari O'zbekistonda infratuzilma, energetika va aloqa kabi ko'plab sohalarga sarmoya kiritgan. 2022-yilda O'zbekiston bilan eng yuqori savdoga ega davlatlar top 10 taligida Turkiya 1507,4 AQSH dollarlik eksport va 1716,5 AQSH dollarlik import bilan to'rtinchi o'rinda edi<sup>8</sup>.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sdi. 2024-yil holatiga ko'ra, ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi 2,93 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2020-yilga nisbatan 30% ga ko'pdir<sup>9</sup>. 2025 yilning birinchi yarmida ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi 1,3 mlrd dollardan oshgan. Kelgusi 5 yilda bu ko'rsatkichni 5 milliard dollarga, 10 yilda esa 10 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilmoqda<sup>10</sup>. O'zbekistonda 500 dan ortiq turk kompaniyalari, xususan, qurilish, to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika sohasida faoliyat yuritmoqda. Masalan, 2023-yilda Turkiyaning "Chalik Holding" kompaniyasi O'zbekistonga 180 million dollarlik to'qimachilik klasterini rivojlantirish uchun investitsiya kiritdi va 3500 ish o'rnini yaratildi<sup>11</sup>.

Mamlakatlar transport-kommunikatsiya sohasida ham hamkorlikni kuchaytirishmoqda. Bu borada Turkmaniston, Ozarbayjon, Gruziya temir yo'llarini Turkiya transport tarmog'i bilan bog'laydigan Navoiy-Turkmanboshi-Boku-Tbilisi-Kars temir yo'l yo'lagi O'zbekiston uchun katta ahamiyatga ega. Turkiyaning Mersin porti orqali bu temir yo'l O'zbekistonga O'rta yer dengiziga chiqish imkonini beradi. 2024-yilda bojxona jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha qo'shma kelishuvlar imzolandi, bu esa tranzit salohiyatini 20% ga oshirishi kutilmoqda.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi madaniy yaqinlik "Turkiy dunyo" strategiyasining asosiy poydevoridir. So'nggi yillarda O'zbekistonda turk ta'lim muassasalari qayta faoliyat boshladi, masalan, Toshkentdagi "Yeni Nesil" xalqaro maktabi 2022-yilda ochildi va 1000 dan ortiq o'quvchiga ta'lim bermoqda. Joriy yilning 24-yanvar kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida "O'zbekiston - Turkiya: ta'lim sohasidagi hamkorlik istiqbollari" mavzusidagi davra suhbatini bo'lib o'tdi. Tadbirda ishtirok etgan Turkiya Oliy Ta'lim Kengashi raisi Erol Özvar hozirgi kunda Turkiyada tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 2,5 mingga yaqinlashayotganini ta'kidladi<sup>12</sup>.

Turkiya va O'zbekiston Afg'oniston masalasida ham hamkorlik qiladi. AQSh Afg'onistondan qo'shin olib chiqqanidan keyin ham Afg'oniston, ham mintaqaga uchun yangi vaziyat yuzaga keldi. Markaziy Osiyo davlatlarining, xususan, O'zbekistonning

<sup>7</sup>Turkiya Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi rasmiy sahifasi. Toplam imzalanan anlasma sayisi: 1992-2019 doneminde 92 adet ikili anlasma ve protocol. <https://www.mfa.tr>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo aylanmasi hisoboti. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika agentligi. <https://stat.uz/images/uploads/docs/pressreliztashqisavdo202212>

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi (2024- yil yanvar-dekabr). O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika agentligi. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/59511-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2024-yil-yanvar-noyabr>

<sup>10</sup> O'zbekiston va Turkiya o'zaro savdoni 5 mlrd dollargacha kengaytirmoqchi. Daily Sabah nashri.08.04.2022. <https://www.dailysabah.com/business/economy/turkey-uzbekistan-eye-5b-in-bilateral>

<sup>11</sup> O'zbekiston va "Chalik" xoldingi energetika va tog'-kon sanoati sohasida loyihalarni kengaytirishni maqsad qilgan. O'zbekiston Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish vazirligi. <https://mineconomy.uz/>

<sup>12</sup> O'zbekiston, Turkiya ta'lim sohasida hamkorlikni rivojlantirmoqda. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. [https://uza.uz/en/posts/uzbekistan-turkey-develop-cooperation-in-education\\_340262](https://uza.uz/en/posts/uzbekistan-turkey-develop-cooperation-in-education_340262)



xavfsizligi Afg'onistondagi hozirgi vaziyat bilan bevosita bog'liq. O'zbekiston Afg'oniston muammosini hal etish maqsadida Turkiya rahbarligida tashkil etilgan "Osiyo yuragi - Istanbul jarayoni" platformasida ishtirok etmoqda. Afg'onistonda barqaror barqarorlikning o'rnatilishi ham Turkiya, ham Markaziy Osiyo davlatlari uchun juda muhim. Bu doirada Turkiya mintaqa davlatlari va O'zbekiston bilan hamjihatlikda qiladi.

Ko'p tomonlama formatlarga kelsak, ikki davlat munosabatlarini rivojlanishida tashkilotlarning o'rni sezilarli darajada ortmoqda. Shunday tashkilotlardan biri sifatida hech ikkilanmasdan Turkiy davlatlar tashkilotini misol qilib ko'rsatish mumkin. O'zbekiston-Turkiya munosabatlarining yangi bosqichi O'zbekistonning tashkilotdagi ishtirokida o'z ifodasini topdi. O'zbekiston 17 yillik tanaffusdan so'ng 2018 yilda Bishkek shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti yig'ilishida ishtirok etdi va 2019 yilda Bokuda bo'lib o'tgan sammitda Turkiy davlatlar tashkilotiga rasman a'zo bo'ldi. Shu tariqa rasmiy Toshkent uning tashqi siyosatidagi ustuvor maqsadlardan biri ko'p tomonlama formatlarda o'zaro manfaatli sherikchilikni kuchaytirish ekanligini yana bir bor amalda isbotladi.

Qolaversa, Turkiy Kengashdagi o'z ishtiroki orqali mamlakatimiz turkiy dunyoda birdamlik ruhi va ishonch muhitini mustahkamlash siyosatiga sodiqligini va tashkilot doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga tayyor ekanligini ko'rsatib qo'ydi. Turkiy davlatlar tashkilotining 2022 yilgi O'zbekistonning Samarqand shahridagi sammitida Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar har tomonlama ko'rib chiqilib, sheriklik asosidagi hamkorlikni kengaytirish bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar muhokama qilindi. Tomonlar ikki tomonlama munosabatlardan tashqari mintaqaviy va global muammolarni ham muhokama qildilar.

Shu o'rinda yana bir omilni ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Turkiy kengashga a'zolik maqomini qabul qilish istagini bildirganda, albatta, bunday hamkorlik formati doirasidagi sherikchilikka talab ortib borayotganligini, tashkilotdagi mavjud mexanizmlardan foydalanish mamlakat an'anaviy sheriklari bilan hamkorlikni yangi sifat bosqichiga olib chiqishi va bu aloqalarning davomli rivoji turkiy xalqlar umumiy manfaatlariga xizmat qilishi muqarrarligini inobatga olgan.

#### Xulosa

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo davlatlari Turkiya Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Turkiya ushbu davlatlarga mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin faol ta'sir o'tkazish siyosatini boshladi, bu ikki tomonlama munosabatlarni o'rnatish uchun imkoniyatlar ochdi. Bugungi kunda dunyo diqqat e'tibor markazida turgan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida azaliy qardoshlikni mustahkamlash barobarida global va mintaqaviy muammolar bo'yicha siyosiy maslahatlashuvlarni kuchaytirish, iqtisodiy va texnikaviy hamkorlikni, ilm-fan, san'at va madaniyat sohasida hamda turkiy dunyoning moddiy,



ma'naviy madaniyatini asrash va yanada rivojlantirish borasida hamkorlikni yuqori saviyaga ko'tarish doimiy e'tiborda bo'lib qoladi.

Bevosita Markaziy Osiyo mintaqasida Turkiya manfaatlari mavjudligini hisobga olgan holda, Turkiya hukumati ushbu mintaqaga o'z ta'sir doirasining salohiyatli sohalaridan biri sifatida qaray boshladi. Shu bois ham aynan birinchilardan bo'lib Turkiya nafaqat mintaq davlatlarini tan olgani, balki o'xshash mentalitet va madaniy an'analarga ega bo'lgan turk davlatlarini birlashtirish bayrog'i ostida ular bilan faol munosabatlar o'rnatishga kirishgani bejiz emas. Hozirgi kunda Turkiya O'zbekiston hamda Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan faol ikki tomonlama aloqalar yo'lga qo'yilgan hamda o'rtadagi kelishmovchiliklarga barham berildi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Turkiya munosabatlari mustaqilligimizning ilk yillardagi darajaga, balki ikki davlat o'rtasidagi aloqalar haqiqatan ham strategik hamkorlik darajasiga yetdi. Tarixning guvoxlik berishicha turk-o'zbek xalqlari nafaqat umumiy etnik kelib chiqishi, umumiy til va madaniyati jihatidan, balki ichki ruxiyatiga ko'ra ham qardosh xalqlarlardir. Mana shunday yaqinlik va yondashuvlarning mushtarakligi salohiyati hali to'liq ochilmagan o'zbek-turk hamkorligi bundan buyon ham har ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo'lida mus-tahkamlanib, chuqurlashib borishining eng ishonchli garovidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston va Turkiya munosabatlarining mintaqaviy geosiyosiy jihatlari va istiqbollari, SH.Yuldoshev. Toshkent, Pedagogik tadqiqotlar jurnali. 2025 yil. <https://www.wosjournals.com>.
2. Kipr yunon davlatining Markaziy Osiyo davlatlar tomonidanyagona davlat sifatida tan olishi Turkiya strategiyasiga zarba beradi. 17.04.2025 Daily Sabah. <https://www.dailysabah.com>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrifi doirasidagi oliy darajadagi uchrashuvdagi nutqi (Anqara, 2017-yil 26-oktabr). Manba. O'zbekiston Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz>
4. Turkiya Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi rasmiy sahifasi. Toplam imzalanen anlasma sayisi: 1992-2019 doneminde 92 adet ikili anlasma ve protocol
5. O'zbekiston – Turkiya: hamkorlikning yangi bosqichi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. 25.10.2017. <https://president.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo aylanmasi hisoboti. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika agentligi. <https://stat.uz>
7. O'zbekiston, Turkiya ta'lim sohasida hamkorlikni rivojlantirmoqda. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. <https://uza.uz>
8. Jo'raev S.A., Saidolimov S., Abdug'anieva Z., Xalqaro xavfsizlik. – Toshkent: Akademiya, 2007.



9. Safoev S.S. Markaziy Osiyoda kechayotgan geosiyosiy jarayonlar va mintaqaning hozirgi dunyo xalqaro munosabatlar tizimida tutgan o'rni // Xalqaro munosabatlar. – Toshkent. – 2005

10. O'zbekiston va "Chalik" xoldingi energetika va tog'-kon sanoati sohalarida loyihalarni kengaytirishni maqsad qilgan. O'zbekiston Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish vazirligi. <https://mineconomy.uz/>

Internet saytlar

1. [dailysabah.com](http://dailysabah.com)
2. [yee.org.tr](http://yee.org.tr)
3. [trt.net.tr](http://trt.net.tr)
4. [gazeta.uz](http://gazeta.uz)
5. [lex.uz](http://lex.uz)
6. <https://president.uz>